

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI**

**XODJAYEV UTKIRJON OKTAMOVICH**

**$TlIn_{1-x}Fe_x(S,Se)_2$  QATTIQ ARALASHMALI MONOKRISTALLARINING  
OPTIKAVIY, ELEKTROFIZIKAVIY VA FOTOELEKTRAVIY  
XUSUSIYATLARI**

**01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi**

**fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) on  
physical and mathematical sciences**

**Xodjayev Utkirjon Oktamovich**

TlIn<sub>1-x</sub>Fe<sub>x</sub>(S,Se)<sub>2</sub> qattiq aralashmali monokristallarining optikaviy,  
elektrofizikaviy va fotoelektrikaviy xususiyatlari..... 3

**Ходжаев Уткиржон Октамович**

Оптические, электрофизические и фотоэлектрические свойства  
монокристаллов TlIn<sub>(1-x)</sub>Fe<sub>x</sub>(S,Se)<sub>2</sub> ..... 20

**Khodjaev Utkirjon Oktamovich**

Optical, electrophysical and photoelectric properties of  
TlIn<sub>(1-x)</sub>Fe<sub>x</sub>(S,Se)<sub>2</sub> monocrystals ..... 37

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 42

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI**

**XODJAYEV UTKIRJON OKTAMOVICH**

**$TlIn_{1-x}Fe_x(S,Se)_2$  QATTIQ ARALASHMALI MONOKRISTALLARINING  
OPTIKAVIY, ELEKTROFIZIKAVIY VA FOTOELEKTRAVIY  
XUSUSIYATLARI**

**01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi**

**fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1118 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro fizikasi institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.inp.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nuritdinov Izzatullo**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Rajabov Sali Ashirovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Parpiyev Adxamjon Sobirjanovich**  
fizika-matematika fanlari bo'yicha PhD,  
katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100214, Toshkent sh., Ulug'bek qo'rg'oni; tel.: (+99871)289-31-41; faks: (+99871)289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent sh., Ulug'bek qo'rg'oni; tel.: (+99871) 289-31-19.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.Yu. Tashmetov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
t.-m.f.d., professor

**O.R. Tojiboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD,  
katta ilmiy xodim

**E.M. Tursunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
f.-m.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda tadqiqotchilar tomonidan ham, amaliyotchilar tomonidan ham  $A^{III}B^{III}C_2^{VI}$  turdagi yaqqol qatlamli tuzilishga ega bo'lgan talliy xalkogenid birikmalari kristallariga qiziqish ortib bormoqda. Bu oiladagi kristallarning o'ziga xos xususiyati ularning ham yarimo'tkazgich, ham tenzorezistiv xossalarni namoyon etishidir. Ushbu turdagi birikmalarning kristall tuzilishi qatlamli bo'lgani sababli, bu, odatda ularning fizik xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi politipik o'zgarishlarning shakllanishiga olib keladi. Bu birikmalarning kristallari amaliy qo'llanilishi nuqtayi nazaridan jozibador bo'lib, ular asosida fotoelektrik o'zgartiruvchilar, spektr analizatorlar hamda rentgen, gamma va neytron nurlanishlari detektorlarini tayyorlash uchun istiqbolli materiallar hisoblanadi. Shuningdek, ushbu materiallarning xossalarni maqsadli boshqarish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyoda  $A^{III}B^{III}C_2^{VI}$  turdagi legirlangan qatlamli va zanjirsimon kristallarning radiatsion jarayonlarini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Buning sababi, qattiq jismlarning xususiyatlarini boshqarishning eng samarali usullaridan biri ularning tarkibiga kirindilar kiritish hamda turli xil yadroviy va ionlashtiruvchi nurlanishlar yordamida ularning xossalarni maqsadli o'zgartirishdir.

So'nggi yillarda Respublikamizda legirlangan murakkab yarimo'tkazgichli materiallarni tadqiq qilish katta qiziqish uyg'otmoqda, bu materiallarning xossalarni maqsadli boshqarish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish va uni amaliyotda keng qo'llashning boshqa yo'nalishlari bilan bir qatorda yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ish respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II."Energetika, energiya tejamkorligi va muqobil energiya manbalari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bugungi kunda dunyodagi yirik ilmiy markazlarning yetakchi mutaxassislari, shu jumladan, amerikalik (T.J.Isaacs), yaponiyalik (S.Kashida, Y.Kobayashi, R.Matsumoto), germaniyalik (H.Hahn, W.Henkel, D.Muller, F.Poltmann), shveytsariyalik (E.Mooser), isroillik

(E.Mooser, A.M.Panich), turkiyalik (I.Guler, N.M.Gasanly), ozarbayjonlik (K.R.Allohverdiyev, A.E.Baxishev, G.D.Guseynov, G.B.Abdullayev, S.N.Mustafoyeva, N.Mamedov, V.D.Rustamov, E.M.Kerimova, E.M.Gojayev), ukrainalk (A.V.Gomonnai, Yu.M.Azhniuk, I.Petryshynets, O.O.Gomonnai), rossiyalik (V.M.Burlakov, E.A.Vinogradov), belarus (A.U.Sheleg, V.G.Gurtova), moldovalik (V.V.Mushinskiy, M.I.Karaman), o'zbekistonlik (S.X.Umarov, I.Nuritdinov, M.Y.Tashmetov, J.J. Ashurov, F.K.Hallokov) va boshqalar  $A^{III}B^{III}C_2^V$  tipidagi ko'p komponentli xalkogenid birikmalarining yetarlicha toza, birjinsli va turli xil aralashmalar bilan legirlangan yuqori sifatli kristallarini o'stirish texnologiyalarini ishlab chiqdilar, ushbu oiladagi ko'plab kristall birikmalarining kristall tuzilishlari aniqlandi, elektrofizik, fotovoltaik, ferroelektrik, dielektrik, spektral-optik, magnit va boshqa xususiyatlari juda yaxshi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bu birikmalar istiqbolli yarimo'tkazgich materiallari bo'lib, keng qamrovli tizimli tadqiqotlarni talab qiladi.

Qattiq jismlarning xususiyatlarini boshqarishning kuchli usullaridan biri bu ularning tarkibiga kirishmalar kiritish, shuningdek, ularni har xil turdagi yadroviy va ionlashtiruvchi nurlar bilan nurlantirishdir, bu esa legirlangan va nurlantirilgan materiallardagi fizikaviy jarayonlarni maqsadli o'rganishni talab qiladi. Ammo  $A^{III}B^{III}C_2^V$  turdagi xalkogenid birikmalarida, ayniqsa, legirlangan namunalardagi radiatsiyaviy hodisalar juda kam va tizimsiz o'rganilgandir. Mavjud ma'lumotlar ham ba'zan bir-biriga qarama-qarshi keladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ilmiy-tadqiqot tadqiqot ishlari rejasining FA-F2-F065-F071 "O'rinbosar va kiritma qattiq eritmalarda termo va radiatsion-stimullangan hodisalar" (2007–2011), O'zbekiston Prezidentning 2019-yil 21-noyabrdagi PP-4526-son qarori bilan tasdiqlangan Yadro fizikasi instituti ilmiy-tadqiqot ishlar dasturi doirasida "Sintsillyatorlar va diodli nasosli lazerlar uchun istiqbolli keng zonali oksidli va ftoridli qattiq jisimli materiallarda radiatsion-stimullangan hodisalar va spektral-lyuminescent xususiyatlar" (2020–2024) mavzusidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi**  $TlIn_{(1-x)}Fe_xS_2$  va  $TlIn_{(1-x)}Fe_xSe_2$  qattiq eritmalarining kristall strukturasi, elektrofizik, fotoelektrik va optik xossalariiga temir kirishmasi konsentratsiyasi hamda ionlashtiruvchi nurlanishlarning ta'sirini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

o'stirilgan o'zgaruvchan tarkibli kristallarning rastri elektron-mikroskopik va zondli mikrorentgenospektroskopik tahlillarini o'tkazish, ularning o'sish jarayonida stexiometriyadan og'ish va birjinslilikning buzilish darajasini aniqlash; rentgenostrukturaviy tahlil yordamida gamma va elektron nurlanishlar ta'siri hamda indiy ionlarining temir ionlari bilan qisman almashinishi natijasida  $TlIn_{(1-x)}Fe_xSe_2$  kristallari panjara parametrlarining simmetriyasini va o'zgarish xarakterini aniqlash;

elektronlar bilan nurlantirishdan oldin va nurlantirilgandan keyin  $\text{TlIn}_{(1-x)}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  kristallarning elektr, fotoelektr va optikaviy xususiyatlariga In ionlarining Fe ionlariga almashinishining ta'sirini o'rganish;

o'stirilgan yangi qatlamli yarimo'tkazgich kristallarining amaliy xususiyatlari va texnikaviy qo'llanilish istiqbollarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida  $\text{TlIn}_{(1-x)}\text{Fe}_x\text{S}_2$ ,  $\text{TlIn}_{(1-x)}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  murakkab xalkogenid kristallarining qattiq eritmalari olingan.

**Tadqiqotning predmetini**  $\text{TlIn}_{(1-x)}\text{Fe}_x\text{S}_2$ ,  $\text{TlIn}_{(1-x)}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  murakkab xalkogenid kristallarining qattiq eritmalari kristall tuzilishi, sirt morfologiyasi, elektrofizik, fotoelektrik va optik xossalari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari:** rentgen difraksiyasi, to'liq profilli tahlil (Ritveld), optik va fotoelektrik spektroskopiya, rastrli elektron-mikroskopik va zondli mikrorentgen-spektral tahlil usullari, atom-kuch va skanerlovchi elektron mikroskopiya.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

$\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  ( $x = 0-0.02$ ) qattiq eritmalari  $I4/mcm$  fazoviy guruhli tetragonal singoniya asosida  $a = 8.068 \text{ \AA}$ ,  $b = 8.068 \text{ \AA}$ ,  $c = 6.816 \text{ \AA}$  parametrlari bilan bir fazali,  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  qattiq eritmalari ( $x = 0-0.01$ ) esa  $P2/m$  fazoviy guruhli, panjara parametrlari  $a = 10.896 \text{ \AA}$ ,  $b = 10.896 \text{ \AA}$ ,  $c = 15.173 \text{ \AA}$  bilan monoklin singoniya asosida kristallanishi aniqlangan: kristallarni Fe aralashmasi bilan legirlashda ularning bir fazaliligi, singoniyasi va fazoviy guruhlari saqlanib qoladi, bunda aralashma konsentratsiyasining ortishi bilan kristall panjaraning parametrlari asta-sekin kamayadi;

$\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  qattiq eritmalarida kichik dozalar (radiatsion silkinish) hodisasi aniqlangan: namunalarni  $^{60}\text{Co}$  manbaining gamma nurlari bilan  $10^7$  Rad dozagacha nurlantirish, shuningdek, elektronlar bilan  $5 \times 10^{15}$  elektron/ $\text{sm}^2$  flyuyensgacha nurlantirilganda, qattiq eritmalarning elementar yacheykasi parametrlari kamayadi, ularning taqiqlangan zonalarining kengligi  $E_g$  ortadi. Nurlanish dozasi yanada ortganda esa kristall panjaralar parametrlarining qiymatlari ortadi, taqiqlangan zonalarining kengligi  $E_g$  esa kamayadi;

temir ionlari bilan legirlash, shuningdek, gamma nurlari va elektronlar bilan nurlantirish  $\text{TlInSe}_2$  monokristallari hamda  $\text{TlIn}_{0,98}\text{Fe}_{0,02}\text{Se}_2$  qattiq qorishmalarining sirt morfologiyasini kuchli o'zgartirishi aniqlangan:  $\text{TlInSe}_2$  kristallariga temir kirishmalarining kiritilishi sirtning holatini yaxshilashga, profilning o'rtacha arifmetik og'ishining maksimal qiymatini kamaytirishga, shuningdek, o'rtacha g'adir-budirlik balandligining pasayishiga olib keladi,  $5 \times 10^{16}$  elektron/ $\text{sm}^2$  flyuyensli elektronlar bilan nurlantirish esa ham legirlanmagan, ham legirlangan kristallarda sirt holatini sezilarli darajada yomonlashtiradi;

temir ionlari konsentratsiyasining ortishi bilan o'rganilayotgan tarkiblar qattiq eritmalari monokristallarining solishtirma qarshiligi  $\rho$ , taqiqlangan soha kengligi  $E_g$ , spektral fotosezgirlik maksimumi  $(h\nu)_{\text{max}}$  ortishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

$\text{TlInSe}_2$  monokristallariga temir kirishmalarining kiritilishi profilning o'rtacha arifmetik og'ishlarining maksimal qiymatlarini ( $R_a=40.9 \text{ nm}$  dan  $R_a=17.7 \text{ nm}$

gacha) kamaytirishga, shuningdek, o'rtacha g'adir-budurlik balandligining pasayishiga ( $R_z=398.1$  nm dan  $R_z=189.9$  nm gacha) olib keladi, bu esa ushbu material sirtining holatini yaxshilaydi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari, yuqori aniqlikdagi uskunalari, o'rganilayotgan namunaning strukturaviy, elektrofizik, fotoelektrik va optik parametrlarini o'lchash uchun standart aniqlik hamda yuqori sezgirlikka ega asboblardan foydalanish, tajribalarda zarur statistik ma'lumotlar to'plamini olish, olingan natijalarni boshqa, mustaqil tadqiqotchilarning natijalari bilan tasdiqlash, olingan ma'lumotlarning umumfizikaviy qonunlarga va mavjud sinovdan o'tgan fizik modellarga mos kelishligi bilan ta'minlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** temir kirishmasi konsentratsiyasining, gamma nurlantirishlar va tezlashtirilgan elektronlar dozalarining  $\text{TlInSe}_2$ ,  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$ ,  $\text{TlInS}_2$ ,  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  kristallarining kristall tuzilishga, sirt holatiga, elektrofizik, fotovoltaik va optik xususiyatlariga ta'sirining belgilangan qonuniyatlarining aniqlanishi bilan belgilanadi, bular ko'p komponentli keng zonali yarimo'tkazgich qattiq eritmalarga nisbatan mavjud nazariy ishlanmalarni rivojlantirishga, xususan, turli xil kirishmalar ta'sirining nazariy masalalarini ishlab chiqish, tezlashtirilgan elektronlar va gamma nurlanishining ta'siri ostida radiatsiyaviy nuqsonlarning shakllantirishi masalalarini oydinlashtirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  monokristallari qattiq eritmalarning tuzilishi, elektrofizik, fotoelektrik va optik xossalari temir konsentratsiyasining o'zgarishi, gamma-nurlari va tezlashtirilgan elektronlar ta'siriga barqarorligini aniqlashdan iborat bo'lib, bu ularni elektronika sanoati uchun radiatsiyaga chidamli istiqbolli yarimo'tkazgich materiallar sifatida ko'rib chiqishga zamin yaratadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**  $\text{TlInSe}_2$ ,  $\text{TlInS}_2$  va  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x(\text{S},\text{Se})_2$  monokristallarining strukturaviy, optik, elektrofizik va fotoelektrik xossalari tadqiq qilish bo'yicha olingan natijalar asosida:

tetragonal tuzilishga ega  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  monokristallida (faz.gr.  $I4/mcm$ ) va monoklin singoniyali  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  ( $x=0-0.01$ ) qattiq eritmasida (faz.gr.  $P2/m$ ,  $\beta=100^\circ$ ) bir fazali holatlarni o'rnatish;

$\text{TlInSe}_2$  va  $\text{TlInS}_2$  kristallarini temir ionlari bilan legirlashda sirt holatini yaxshilash;

$\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  qattiq qorishma monokristallarining temir ionlari konsentratsiyasi ortishi bilan solishtirma qarshilik  $\rho$ , taqiqlangan zona kengligi  $E_g$ , spektral fototok  $(hv)_{\max}$  maksimumlari holatlari ortishi aniqlangani Ozarbayjon Respublikasi Fan va ta'lim vazirligi Fizika institutining "TlGaS(Se)<sub>2</sub>-Nd<sub>2</sub>S(Se)<sub>3</sub>, (TlGaSe<sub>2</sub>)<sub>x</sub>(TlBiSe<sub>2</sub>)<sub>1-x</sub>, TlGaS<sub>2</sub>-TlGaSe<sub>2</sub>, TlGaSe<sub>2</sub>-TlGaS<sub>2</sub>, TlInS<sub>2</sub> - TlInSe<sub>2</sub> sistemalar kristallofizikasi va ularga nodir yer elementlarining ta'siri" mavzusidagi tadqiqotlari doirasida foydalanilgan (Ozarbayjon Respublikasi Fan va ta'lim vazirligi Fizika institutining 25.11.2024-yildagi №029-08/476-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish murakkab yarimo'tkazgichlarning fizik xossalari, ularning tarkibi va

kirishmalar miqdoriga bog'liqligini tahlil qilish imkonini bergan; nodir yer kirishmalari bilan legirlashda  $\text{TlInS}_2$  va  $\text{TlInSe}_2$  qattiq qorishmalarining kristall panjaralari parametrlarining o'zgarish xarakterini aniqlashtirish, shuningdek, boshqa kirishmalar bilan legirlashda ushbu kristallarning sirt holatini yaxshilash imkonini bergan;

$\text{TlInSe}_2$  kristallarining Fe (2 mol.% gacha) aralashmasi bilan legirlanganda ularning bir fazaliligi, singoniyasi va fazoviy guruhi saqlanib qolishi, sirt holati yaxshilanishi, kristall panjara parametrlari kamayishi aniqlangan. Elektronlar bilan nurlantirilganda ( $5 \cdot 10^{15}$  el/sm<sup>2</sup> gacha) elementar yacheyka parametrlari kamayishi va taqiqlangan zona kengligi oshishi kuzatilgan. Olingan natijalardan xorijiy olimlar tomonidan foydalanilgan (xorijiy ilmiy jurnallarda iqtibos: Journal of Modern Physics B., 2024. – P. 2550103; Materials Research Innovations, 2024. – P. 1-5; Eurasian Physical Technical Journal, 2024. V. 21. No 2 (48). – P. 5-13). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi  $\text{TlInSSe}$ ,  $\text{ZnSe}$  va  $\text{Md}_2\text{Zn}_2\text{O}_7$  turdagi kristallarni kirishmalar bilan legirlash va ionlashtiruvchi nurlanish ta'sirida ularning kristall panjara parametrlari, taqiqlangan zona kengligi va sirt holatlarining o'zgarish mexanizmlarini asoslash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 11 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda.

**Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti va usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning " **$\text{TlInS}_2$ ,  $\text{TlInSe}_2$  monokristallari va ular asosidagi qattiq qorishmalarining fizik-kimyoviy xossalari**" deb nomlangan birinchi bobida tadqiq qilinayotgan  $\text{TlInS}_2$ ,  $\text{TlInSe}_2$  monokristallari va ular asosidagi qattiq eritmalarining kristall tuzilishi, fotoelektrik, elektrofizik va optik xossalari, kirishmalar va ionlashtiruvchi nurlanishlarning tadqiq qilinayotgan kristallar hamda qattiq eritmalarining xarakteristikalariga ta'siri bo'yicha adabiyotlar sharhi

keltirilgan. Adabiyot materiallari tahlili asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Monokristallarni olish texnologiyasi, fazaviy tahlillar va o‘lchashlar metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida fazaviy muvozanat masalalari, monokristallarni sintez qilish va o‘stirish texnologiyalari, o‘stirilgan  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$ ,  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  tizim kristallarining mukammalligini nazorat qilish masalalari bayon etilgan. Sintez uchun boshlang‘ich komponentlar sifatida o‘ta toza Tl, In, Fe, Se va S elementlaridan foydalanilgan. Sintez qilingan birikmalarning monokristallari takomillashtirilgan Brijmen usulida o‘stirilgan. Namunalar 2 MeV energiyali va  $0.085 \text{ mA/cm}^2$  tok zichligiga ega bo‘lgan elektronlar bilan nurlantirish O‘zR FA Yadro fizikasi institutidagi “Elektronika U-003” tezlatgichida, gamma nurlari bilan nurlantirish esa  $^{60}\text{Co}$  gamma nurlari manbasida amalga oshirildi. Elektronlar energiyasi namunaning zichligi va qalinligidan kelib chiqib tanlandi hamda alyuminiydan tayyorlangan standart o‘lchash ponasi (P4701) Riso 2 Piece Aluminum (Belgiya) yordamida aniqlandi. Namunalar elektronlar dastasi yo‘nalishiga perpendikulyar ravishda tezlatgich yoyilmasidan 0.4 m masofada o‘rnatildi va  $1.5 \times 10^{17}$  elektron/ $\text{cm}^2$  elektronlar flyuyensida nurlantirildi.

Rentgenodifraksion tadqiqotlari Malvern Panalytical Empyrean difraktometrda amalga oshirildi. Rentgen difraksiyasi spektrlari Malvern Panalytical Empyrean analitik difraktometri yordamida  $\text{CuK}_\alpha$  ( $\lambda = 1,54 \text{ \AA}$ ) nurlanish generatori kuchlanishi 45 kV, emissiya toki – 40 mA bo‘lganda Bregg – Brentano dastasi geometriyasida  $2\theta = 20^\circ - 120^\circ$  oraliqda 0.33 grad/min uzluksiz skanerlash tezligi bilan qayd etildi.

Rentgenstrukturaviy tahlil ma’lumotlari FullProf dasturi yordamida Ritveld usuli bilan qayta ishlandi.

Namunalardan kukun holatida olingan rentgen-difraksion ma’lumotlar asosida Debay–Sherrer formulasi bo‘yicha kristallitlar o‘lchami aniqlandi:

$$D = K\lambda / (\beta \cos \theta) \quad (1)$$

bunda D – kristallitlarning o‘rtacha o‘lchami, K – geometrik koeffitsiyent ( $K= 0.9$ ),  $\lambda$  - rentgen nurlari to‘lqin uzunligi ( $\lambda = 1.5406 \text{ \AA}$ ),  $\beta$  – yarim balandlikdagi difraksion refleks kengligi (FWHM),  $\theta$  – difraksiya burchagi.

Dislokatsiya zichligi quyidagi tenglamadan aniqlandi:

$$\delta = 1 / D^2 \quad (2)$$

Kristallardagi mikrokuchlanishi qiymati Stoks–Vilson tenglamasi bo‘yicha hisoblangan:

$$\varepsilon = \beta / (4 \tan \theta) \quad (3)$$

Namunalar yuzasi relefining uch o‘lchamli tasviri SPM 9700HT (Shimadzu) skanerlovchi zondli mikroskopda olingan. Tadqiqotlar skanerlovchi zondli mikroskopning kontakt rejimida o‘tkazildi. Buning uchun 30x30 mkm o‘lchamdagi namuna uchastkasi tanlandi va nurlantirishdan oldin va keyin "cho‘qqilar" soni, ularning yarim kengligi va balandligi aniqlandi. Keyinchalik

matnda quyidagi belgilardan foydalanamiz:  $R_a$  – bazaviy uzunlik doirasida eng kichik kvadratlar usuli bilan o‘tkazilgan profilning o‘rta chizig‘idan o‘rtacha arifmetik chetlanishi,  $R_z$  – 10 ta nuqta bo‘yicha profil notekisliklarining balandligi, ya’ni bazaviy uzunlik doirasida profilning beshta eng katta bo‘rtig‘ining mutlaq balandliklari va profilning beshta eng katta chuqurligining o‘rtacha qiymati. Sirtning g‘adir–budirligini tavsiflovchi notekisliklarni ajratish va uning parametrlarini miqdoriy aniqlash uchun ishlatiladigan chiziqning uzunligi bazaviy uzunlik hisoblanadi.

Monokristallarning optik yutilishi “Lambda-35” UF-B spektrofotometri (Perkin Elmer) yordamida 190-1100 nm to‘lqin uzunliklari oralig‘ida o‘rganildi. Yutilish spektrlari bo‘yicha kristallarning taqiqlangan zonasi kengligini aniqlash uchun Taus munosabatidan foydalanildi:

$$(\alpha hv)^2 = A(hv - E_g) \quad (4)$$


bu yerda  $E_g = hc/\lambda$  – taqiqlangan zona optik kengligining energiyasi,  $h$  – Plank doimiysi ( $6.626 \times 10^{-34}$  Dj·s),  $s$  – yorug‘lik tezligi ( $3 \times 10^8$  m/s),  $\lambda$  – yutilgan to‘lqin uzunligi,  $\alpha$  – yutilish koeffitsiyenti,  $hv$  – tushayotgan fotonning eV dagi energiyasi,  $A$  – polosa chetining tikligi doimiysi.

Shuningdek, dissertatsiya ishida foydalanilgan kristallarning fizik xossalarini o‘rganishning rastri elektron-mikroskopik va elektron-mikrozond tahlili, elektrofizik va fotoelektrik xarakteristikalarini o‘lchash, sirt mikrorelyefi va namunalarni nurlantirish kabi usullari qisqacha ko‘rib chiqilgan.


Dissertatsiyaning **“TlIn<sub>1-x</sub>Fe<sub>x</sub>Se<sub>2</sub> monokristallarining kristall strukturasi, sirt mikrorelyefi va taqiqlangan zona kengligiga ionlashtiruvchi nurlanishning ta’siri”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiq qilinayotgan TlIn<sub>1-x</sub>Fe<sub>x</sub>Se<sub>2</sub> monokristallarining rentgen difraksion xarakteristikalarini o‘lchash va qayta ishlash natijalari, taqiqlangan zona kengliklari va sirt mikrorelyefi keltirilgan.

Bir xil sharoitlarda olingan TlInSe<sub>2</sub> va TlIn<sub>0,98</sub>Fe<sub>0,02</sub>Se<sub>2</sub> monokristallarining rentgenodifraksion ma’lumotlarini o‘lchash hamda qayta ishlash natijalari 1-rasmda keltirilgan. Sintez qilingan namunalar bir fazali ekanligi aniqlandi. Rentgenogrammalardan hisoblangan tekisliklararo masofalarni tetragonal singoniya asosida bir qiymatli indekslash mumkin, ya’ni panjara parametrlari quyidagi qiymatlarga ega:  $a \sim b = 8.0677 \text{ \AA}$ ,  $c = 6.8155 \text{ \AA}$ , (fazo. gr. *I4/mcm*)  $\alpha = \beta = \gamma = 90^\circ$ .

TlIn<sub>0,98</sub>Fe<sub>0,02</sub>Se<sub>2</sub> kristalining elementar yacheykasi parametrlari  $5 \times 10^{15}$  elektron/sm<sup>2</sup> flyuyensgacha bo‘lgan oraliqda elektronlar ta’sirida kamayishi, taqiqlangan zona kengligi  $E_g$  esa ortishi aniqlandi. Elektronlar flyuyensining yanada yuqoriroq qiymatga ortishi bilan kristallning taqiqlangan zonasi  $E_g$  ning kengligi esa kamayadi (2-rasm, 1-jadval).



**1-rasm. Dastlabki TIIn<sub>0,98</sub>Fe<sub>0,02</sub>Se<sub>2</sub> monokristalining rentgenogrammasi: I – eksperimental va hisoblangan ma’lumotlar; II – Bregg akslantirishlari; III – tajriba va hisoblash ma’lumotlari orasidagi ayirma egri chizig’i.**



**2-rasm. Turli elektron flyuyenslarida nurlantirilgan TIIn<sub>0,98</sub>Fe<sub>0,02</sub>Se<sub>2</sub> monokristallarining yutilish spektrlari: 1 - dastlabki; 2 -  $5 \times 10^{14}$  el/sm<sup>2</sup>; 3 -  $5 \times 10^{15}$  el/sm<sup>2</sup>; 4 -  $5 \times 10^{16}$  el/sm<sup>2</sup>**

Kuzatilayotgan holat past dozalar hodisasi nuqtayi nazaridan tushuntiriladi: qattiq jismlarga ionlashtiruvchi nurlar bilan ta’sir ettirilganda, ularda barqaror strukturaviy nuqsonlarga qaraganda 1-2 tartibga ko‘proq chastota bilan noturg’un Frenkel juftlari hosil bo‘ladi.

**1-jadval**


**Tezlashtirilgan elektronlar ta'sirida  $\text{TlIn}_{0,98}\text{Fe}_{0,02}\text{Se}_2$  kristallarining panjara parametrlari va taqiqlangan zona kengligining o'zgarishi [77]**

<b>№ n/n</b>	<b>Nurlanish dozasi, Ei/sm<sup>2</sup></b>	<b>Singoniya</b>	<b>Panjara parametrlari</b>	<b>E<sub>g</sub>, eV</b>
1	nurlantirilmagan	I4/mcm tetragonal	$a = 8.068;$ $b = 8.068;$ $c = 6.816;$ $\alpha = \beta = \gamma = 90^0$	1,652
2	$5 \times 10^{14}$	I4/mcm tetragonal	$a = 8.061;$ $b = 8.061;$ $c = 6.795;$ $\alpha = \beta = \gamma = 90^0$	1,657
3	$5 \times 10^{15}$	I4/mcm tetragonal	$a = 8.056;$ $b = 8.056;$ $c = 6.771;$ $\alpha = \beta = \gamma = 90^0$	1,666
4	$5 \times 10^{16}$	I4/mcm tetragonal	$a = 8.062;$ $b = 8.062;$ $c = 7.136;$ $\alpha = \beta = \gamma = 90^0$	1,663


Noturg'un Frenkel juftligi nuqsonlarining paydo bo'lishi va annigilyatsiyasida kristalda hajmining qisqa muddatli mahalliy o'zgarishlari va uning tez tiklanishi sodir bo'ladi, natijada elastik kuchlanish to'lqinlari paydo bo'ladi. Bu to'lqinlarning mavjud nuqtali nuqsonlar bilan o'zaro ta'siri kristall hajmida mavjud tugunlararo atomlarning faollashtirilmagan ko'chishlariga va ularning tegishli vakansiyalar bilan annigilyatsiyalanishiga olib kelishi mumkin, bu esa ularning nuqsonlardan holi bo'lishiga va materialning dastlabki nuqsonli holatga nisbatan muvozanatliroq holatga o'tishiga olib keladi. Shuning uchun nurlanishning kichik dozalarida, bizning misolimizda  $5 \times 10^{15}$  elektron/sm<sup>2</sup> flyuyensgacha, biografik komplementar nuqson juftliklarining rekombinatsiyasi natijasida nurlantirilayotgan kristall yanada nuqsonsiz bo'lib qoladi.

Nurlantirish tufayli radiatsiyaviy nuqsonlar miqdori boshlang'ich biografik nuqsonlar sonidan ortib ketadigan dozalarida (bu bizning holatimizda elektronlar bilan nurlantirish flyuyensi  $F > 5 \times 10^{15}$  elektron/sm<sup>2</sup>), kristalda strukturaviy nuqsonlar to'plana boshlaydi, kristall panjaraning parametrlari kattalasha boshlaydi va mos ravishda kristallning taqiqlangan zonasi kengligi kamayadi. Legirlash, shuningdek, elektronlar bilan nurlantirish  $\text{TlInSe}_2$  va  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  kristallarining sirt morfologiyasini kuchli o'zgartiradi.  $\text{TlInSe}_2$  kristalli tarkibiga temir

kirishmasining kiritilishi sirt holatini yaxshilanishiga, profilning o‘rtacha arifmetik og‘ishining maksimal qiymatining kamayishiga, shuningdek, o‘rtacha g‘adirbudirlik balandligini kamayishiga olib keladi (3 va 4-rasmlar).




**3-rasm. Monokristallar yuzasining ikki o‘lchamli ASM tasviri:**  
**(a)  $\text{TIIn}_{0,999}\text{Fe}_{0,001}\text{Se}_2$ ; (b)  $\text{TIIn}_{0,995}\text{Fe}_{0,005}\text{Se}_2$ ; (v)  $\text{TIIn}_{0,98}\text{Fe}_{0,02}\text{Se}_2$ .**




**4-rasm. Monokristallar yuzasining hajmiy ASM tasviri:**  
**(a)  $\text{TIIn}_{0,999}\text{Fe}_{0,001}\text{Se}_2$ ; (b)  $\text{TIIn}_{0,995}\text{Fe}_{0,005}\text{Se}_2$ ; (v)  $\text{TIIn}_{0,98}\text{Fe}_{0,02}\text{Se}_2$  [77].**

$\text{TIIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  tizimi monokristallari yuzasining mikrorelefi  $x=0.001\div 0.005$  qiymatlarida 2 MeV energiyali va  $5\times 10^{16}$  elektron/ $\text{sm}^2$  flyuyensgacha bo‘lgan elektronlar ta‘siriga, shuningdek,  $10^7$  Rad/s gacha bo‘lgan dozalarda  $\gamma$ -nurlanishga chidamlidir (5- va 6-rasmlar).



**5-rasm.  $10^7$  rad dozada  $\gamma$ -nurlantirishdan keyin  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  monokristallari sirtining hajmiy ASM tasviri:**  
**a)  $\text{TlIn}_{0,999}\text{Fe}_{0,001}\text{Se}_2$ ; b)  $\text{TlIn}_{0,995}\text{Fe}_{0,005}\text{Se}_2$ ; v)  $\text{TlIn}_{0,98}\text{Fe}_{0,02}\text{Se}_2$**



**6-rasm.  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  monokristallarining  $5 \times 10^{16}$  elektron/ $\text{sm}^2$  flyuyensli elektronlar bilan nurlantirilgandan keyingi sirtining hajmiy ASM tasviri:**  
**a)  $\text{TlIn}_{0,999}\text{Fe}_{0,001}\text{Se}_2$ ; b)  $\text{TlIn}_{0,995}\text{Fe}_{0,005}\text{Se}_2$ ; v)  $\text{TlIn}_{0,98}\text{Fe}_{0,02}\text{Se}_2$ ]**

$\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  kristallarining bu xususiyati ularni yuqori radiatsiya sharoitida ishlaydigan fotoelektron asboblarni yaratish uchun samarali radiatsiyaga chidamli yarimo‘tkazgich materiallar sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.  $x \geq 0.02$  qiymatlarida ionlashtiruvchi nurlanish bilan nurlantirish kristallar sirtining holatini sezilarli darajada yomonlashtiradi.

Dissertatsiyaning “**Fe kirishmasining  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  kristallarining fizikaviy xossalari ta’siri ( $x = 0,001 \div 0,01$ )**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  ning legirlangan qatlamli monokristallarini olish texnologiyasi va ularning ayrim fizikaviy xarakteristikalarini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Fe ionlari bilan legirlangan  $\text{TlInS}_2$  kristallari to‘g‘ridan-to‘g‘ri eritish usuli bilan sintez qilindi va ularning fizikaviy xususiyatlari o‘rganildi. Temir indiy o‘rnini bosuvchi aralashma ko‘rinishida kiritilgan, ya’ni  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  – sintez qilingan kristallarining umumiy formulasi bo‘lib, bu yerda  $x = 0,001; 0,005, 0,01$ .

Sintez qilingandan so'ng ichida  $TlIn_{1-x}Fe_xS_2$  bo'lgan ampula sekinlik bilan sovutildi va olingan mahsulot qo'shimcha ravishda 900 K da gomogenlashtiruvchi toblash amalidan o'tkazildi. Shu tarzda sintez qilingan namunalar yirik blokli strukturaga ega polikristall quymalardan iborat bo'ldi. Termik tadqiqotlar asosida o'stirilgan monokristallarning bir fazalili ekanliklari aniqlandi.  $TlIn_{1-x}Fe_xS_2$  ( $x = 0 \div 0,01$ ) kristallarida Fe konsentratsiyasining ortishi bilan ularning erish harorati  $T_p$  va kristallanish harorati  $T_{kr}$  pasayishi aniqlandi (2-jadval). Ushbu ma'lumotlar asosida optimal rejim tanlandi va Brijmen-Stokbarger usuli bilan  $TlIn_{1-x}Fe_xS_2$  ( $x=0 \div 0,01$ ) monokristallarining qattiq eritmalari o'stirildi. Rentgenofazaviy tahlil natijasida sintez qilingan kristallarning bir fazali ekanligi ko'rsatildi.

## 2-jadval

### Siljigan kristallarning erish va kristallanish haroratlari $TlIn_{1-x}Fe_xS_2$

Namunalar		$TlInS_2$	$TlIn_{0,999}Fe_{0,001}S_2$	$TlIn_{0,995}Fe_{0,005}S_2$	$TlIn_{0,99}Fe_{0,01}S_2$
$T_{er}, ^\circ C$	Bosh.	735	730	730	723
	Tug.	778	776	760	756
$T_{kr}, ^\circ C$	Bosh.	680	678	665	660
	Tug.	665	665	660	653

Rentgenogrammalaridan aniqlangan  $TlIn_{1-x}Fe_xS_2$  namunalarining qatlamlari orasidagi masofalarni panjara parametrlari bilan monoklin singoniyasi asosida indekslanadi:  $a \sim b = 10,95 \text{ \AA}$ ,  $c = 15,1 \text{ \AA}$ ,  $TlIn_{1-x}Fe_xS_2$   $4 \text{ \AA}$ , fazoviy guruh  $P2/m$ ,  $\beta = 100^\circ$  (3-jadval). Eng intensiv difraksiya chiziqlaridan hisoblangan  $Tl(InS_2)_{1-x}(FeSe_2)_x$  kristallarining panjara parametrlari  $TlInS_2$  kristallarining panjara xarakteristikallari bilan qoniqarli ravishda mos keladi.


## 3-jadval

### $TlIn_{1-x}Fe_xS_2$ monokristallarining elementar yacheykasi parametrlari

Namunalar	$a$	$b$	$c$
$TlInS_2$	10,926	10,958	15,268
$TlIn_{0,999}Fe_{0,001}S_2$	10,915	10,947	15,244
$TlIn_{0,995}Fe_{0,005}S_2$	10,894	10,926	15,215
$TlIn_{0,99}Fe_{0,01}S_2$	10,864	10,896	15,173


$TlIn_{1-x}Fe_xS_2$  kristallarining 77-300 K harorat oralig'ida fotoo'tkazuvchanligining statsionar xarakteristikalarini o'rganish orqali (7-rasm) kristallarning elektrofizik xarakteristikallari ularning tarkibi va tuzilishiga bog'liq

ravishda o'zgarishi aniqlandi:  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  kristallarining spektral fotosezgirliги ( $h\nu$ ) maksimumlari bo'yicha aniqlangan namunalarning solishtirma qarshiligi  $\rho$ , ularning taqiqlangan zonasining kengligi  $E_g^{\phi_{\max}}$  temir konsentratsiyasining ortishi bilan ortadi.



**7-rasm. 300 K da  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  monokristallarining fototokining spektral bog'liqligi: 1:  $x=0$ ; 2:  $x=0,001$ ; 3:  $x=0,005$ .**

$\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  kristallarida kontaktlardan zaryad tashuvchilarning injeksiyasi natijasida rekombinatsiya markazlarining qayta zaryadlanishi tufayli manfiy fotoo'tkazuvchanlik hodisasi vujudga kelishi aniqlandi (8-rasm). Elektronlarning rekombinatsiyasiga uzoq vaqt sarflanishi tufayli, o'tkazuvchan zonada zaryad tashuvchilarning miqdori keskin kamayishida manfiy fotoo'tkazuvchanlik hodisasi kuzatildi.



**8-rasm. Elektr maydon kuchlanganligi  $10^3 \text{ V/sm}$ , 77 K da  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  ( $x=0$ ) monokristallari fototokining spektral taqsimoti**

Manfiy fotoelektro'kazuvchanlikning spektral taqsimoti egri chizig'ining shakli aralashma yorug'ligining ikkita mahalliy markaz bilan o'zaro ta'sirlashuvini ko'rsatadi. Manfiy fotoelektro'kazuvchanlikning uzoq to'lqinli chegarasini shakllantiruvchi markaz o'tkazuvchanlik zonasi tubidan 1,05 eV masofada joylashgan. Ikkinchi mahalliy markaz qo'shilganda qorong'ulik tokining so'nish chuqurligi keskin ortadi. Bu sath s-zonadan 1,2 eV uzoqlikda joylashgan.

$\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  kristallarining volt-amper xususiyatlarini o'lchash taxminan 50 V/sm elektr maydon kuchlanganligiga qadar chiziqli bog'liqlikni ko'rsatdi. Yoritish kuchi past bo'lganda fototok yoritilganlikka to'g'ri proporsional bog'liq bo'ladi, yoritilganlik oshganda esa bu bog'liqlik nochiziqli tusga kiradi. Qo'zg'atuvchi yorug'lik oqimining energiyasi 2,4 eV ( $h\nu$ ) ni tashkil etdi. Qo'zg'atish intensivligi sezilarli darajada oshganda fototokning yoritilganlikka nisbatan o'ta chiziqli bog'liqligi kuzatiladi ( $I_\phi \sim L^\alpha$ , bunda  $\alpha > 1$ ) va bu bog'liqlik harorat pasayganda ham saqlanib qoladi. Avvalgi eksperimental sharoitlarda, 77 K haroratda olingan pastki egri chiziq fototokning yoritilganlikka bog'liqligi ( $I_\phi \sim L^\alpha$ ) bilan uchta xarakterli sohani ko'rsatadi, bunda  $\alpha$  1, 0 va 1 dan katta qiymatlarni qabul qiladi.  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  kristallarining fotoelektr o'tkazuvchanlik spektrlarida yutilish sohasida pasayuvchi qism mavjud emas. Bu esa namunalar yuzasining yuqori darajada mukammalligi va yuza qatlamida rekombinatsiya tezligining juda pastligidan dalolat beradi.

## XULOSA

Gamma nurlari va elektronlar oqimi bilan nurlantirilgan  $\text{TlIn}_{(1-x)}\text{Fe}_x\text{S}_2$  hamda  $\text{TlIn}_{(1-x)}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  monokristallarining qattiq eritmalarining strukturaviy, optikaviy, elektrofizikaviy va fotoelektrikaviy xususiyatlarini o'rganish asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1.  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{Se}_2$  va  $\text{TlIn}_{1-x}\text{Fe}_x\text{S}_2$  qattiq eritmaları mos ravishda tetragonal va monoklin singoniyalar asosida bir fazali kristallanadi. Kristallarni legirlashda, shuningdek, ularni 2 MeV energiyali va  $0.085 \text{ mA/cm}^2$  tok zichligiga ega bo'lgan tezlashtirilgan elektronlar bilan nurlantirishda  $10^{17}$  elektron/ $\text{cm}^2$  flyuyensgacha namunalarning bir fazaliligi, singoniyasi va fazoviy guruhlari saqlanadi.

2. Elektronlar ta'sirining  $5 \times 10^{15}$  elek/ $\text{cm}^2$  flyuyensgacha ortishi bilan  $\text{TlIn}_{0,98}\text{Fe}_{0,02}\text{Se}_2$  kristallariining elementar yacheykalari parametrlari kamayadi, taqiqlangan zona kengligi  $E_g$  esa ortadi. Elektronlar flyuyensining yanada ortishi bilan kristall panjara parametrining qiymati ortadi,  $E_g$  esa kamayadi. Kuzatilayotgan hodisa past dozalar hodisasi nuqtayi nazaridan tushuntirildi: kristallarni  $5 \times 10^{15}$  elektron/ $\text{cm}^2$  flyuyensgacha nurlantirilganda kristallda beqaror Frenkel juftlarining rekombinatsiyasi tufayli elastik to'lqinlar hosil bo'ladi, bu esa komplementar biografik nuqsonli juftliklarning rekombinatsiyasiga va kristallning nuqsonliligining kamayishiga olib keladi. Nurlanish dozalarida radiatsiyaviy nuqsonlar miqdori boshlang'ich biografik nuqsonlar sonidan ortib ketganda (bu bizning holatimizda elektronlar bilan nurlantirish flyuyensi  $F > 5 \times 10^{15}$

elektron/sm<sup>2</sup>), kristallda strukturaviy nuqsonlar to‘plana boshlaydi, kristall panjara parametrlari kattalasha boshlaydi va shunga mos ravishda taqiqlangan kenglik kamayadi.

3. TlInSe<sub>2</sub> kristallarini temir ionlari bilan legirlash, shuningdek, ularni gamma nurlari va elektronlar bilan nurlantirish kristallarning sirt morfologiyasini kuchli o‘zgartiradi. TlInSe<sub>2</sub> kristallariga temir kirishmasining kiritilishi sirt holatining yaxshilanishiga, ya’ni profilning o‘rtacha arifmetik og‘ishining maksimal qiymatining kamayishiga va sirtning o‘rtacha g‘adir-budirlik balandligining pasayishiga olib keladi.

4. TlIn<sub>1-x</sub>Fe<sub>x</sub>Se<sub>2</sub> sistemasidagi monokristallar yuzasining mikrorelyefi  $x=0,001\div 0,005$  qiymatlarida 2 MeV energiyali va  $5\times 10^{16}$  elektron/sm<sup>2</sup> flyuyensli elektronlar ta’siriga, shuningdek,  $10^6$  va  $10^7$  R/s dozalarda  $\gamma$ -nurlanishga chidamli. TlIn<sub>1-x</sub>Fe<sub>x</sub>Se<sub>2</sub> kristallarining bu xususiyati ularni yuqori radiatsiya sharoitida ishlaydigan fotoelektron asboblari yaratish uchun samarali radiatsiyaga chidamli yarimo‘tkazgich materiallar sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

5. TlIn<sub>1-x</sub>Fe<sub>x</sub>S<sub>2</sub> ( $x=0\div 0,01$ ) kristallarida Fe konsentratsiyasining ortishi bilan erish harorati va kristallanish harorati pasayishi, ularning solishtirma qarshiligi  $\rho$ , taqiqlangan zona kengligi  $E_g$ , spektral fototok maksimumi  $(hv)_{\max}$  ortishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ**

---

**ИНСТИТУТ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ**

**ХОДЖАЕВ УТКИРЖОН ОКТАМОВИЧ**

**ОПТИЧЕСКИЕ, ЭЛЕКТРОФИЗИЧЕСКИЕ И  
ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МОНОКРИСТАЛЛОВ  
 $TIn_{(1-x)}Fe_x(S,Se)_2$**

**01.04.07 – Физика конденсированного состояния**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

**Ташкент – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/FM1118.

Диссертация выполнена в Институте ядерной физики Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.inp.uz](http://www.inp.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** **Нуритдинов Иззатилло**  
доктор физико-математических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Раджабов Сали Аширович**  
доктор физико-математических наук,  
старший научный сотрудник

**Парпиев Адхамжон Сабиржанович**  
PhD по физико-математическим наукам,  
старший научный сотрудник

**Ведущая организация:** **Ферганский политехнический институт**

Защита диссертации состоится «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 при Институте ядерной физики (Адрес: 100174, г. Ташкент, пос. Улугбек. Тел.: (+99871) 289-31-41; факс: (+99871)289-36-65; e-mail: [info@inp.uz](mailto:info@inp.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ядерной физики (регистрационный номер \_\_\_\_\_). Адрес: 100214, г. Ташкент, поселок Улугбек. Тел. (+99871) 289-31-19.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г.  
(протокол рассылки № \_\_\_\_\_ от \_\_\_\_\_ 2025 г.).

**М.Ю.Ташметов**  
председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.-ф.м.н., профессор

**О.Р.Тожибоев**  
ученый секретарь Научного совета по присуждению  
ученых степеней, PhD.ф.-м.н,  
старший научный сотрудник

**Э.М.Турсунов**  
председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых степеней,  
д.ф.-м.н., профессор

## **Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время во всём мире наблюдается устойчивый рост интереса исследователей к халькогенидным соединениям таллия класса  $A^{III}B^{III}C_2^{VI}$  с многослойной структурой. Отличительными особенностями кристаллов этого класса является то, что они могут проявлять полупроводниковые и пьезорезистивные свойства. Слоистая структура смешанных кристаллов этого типа способствует образованию политипных модификаций, которые оказывают весьма существенное влияние на их физические свойства. Перспективность применения таких материалов обусловлена их высокой эффективностью при использовании в качестве активных материалов в фотоэлектрических преобразователях, спектроанализаторах, а также детекторах рентгеновского, гамма- и нейтронного излучения. В связи с этим разработка методов целенаправленного управления свойствами таких материалов является актуальной научной задачей.

В настоящее время особое внимание уделяется изучению радиационных процессов в легированных слоистых и цепочечных кристаллах типа  $A^{III}B^{III}C_2^{VI}$ . Одним из эффективных подходов управления свойствами твердых тел является введение в их структуру примесных добавок, а также воздействие ионизирующего излучения, позволяющее управлять структурой и функциональными характеристиками материалов.

В последние годы в Республике наблюдается активное развитие исследований в области легированных полупроводниковых соединений, обусловленное их высокой прикладной значимостью. Эти материалы рассматриваются как ключевые компоненты для создания современных приборов фотоэлектрического преобразования, спектрального анализа и радиационного контроля. Разработка и совершенствование методов управления свойствами подобных материалов отражены в Стратегии<sup>1</sup> развития нового Узбекистана на 2022-2026 гг.

Результаты, полученные в настоящей диссертационной работе, в определенной мере, соответствуют задачам, обозначенным в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 гг.» от 28 января 2022 года, № УП-4958 «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования» от 16 февраля 2017 года, в Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» от 17 февраля 2017 года, а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данном направлении.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 г.

технологий республики П. «Энергетика, энергосбережение и альтернативные источники энергии».

**Степень изученности проблемы.** На сегодняшний день ведущими специалистами крупнейших научных центров мира, в том числе американскими (Т.Т.Исаакс), японскими (S.Kashida, Y.Kobayashi, R.Matsumoto), германскими (H.Hahn, W.Henkel, D.Muller, F.Poltmann), швейцарскими (E.Mooser), израильскими (A.M.Panich), турецкими (I.Guler, N.M.Gasanly), азербайджанскими (К.Р.Аллахвердиев, А.Е.Бахышев, Г.Д.Гусейнов, Г.Б.Абдуллаев, С.Н.Мустафаева, N.Mamedov, В.Д.Рустамов, Э.М.Керимова, Э.М.Годжаев), украинскими (A.V.Gomonai, Yu.M.Azhniuk, I.Petryshynets, O.O.Gomonai), российскими (В.М.Бурлаков, Е.А.Виноградов), белорусскими (А.У.Шелег, В.Г.Гуртовой), молдавскими (В.В.Мушинский, М.И.Караман), узбекистанскими (С.Х.Умаров, И.Нуритдинов, М.Ю.Ташметов, Дж.Дж.Ашуров, Ф.К.Халлоков) и другими учеными разработаны технологии выращивания достаточно чистых, однородных и легированных различными примесями высококачественных кристаллов многокомпонентных халькогенидных соединений типа  $A^{III}B^{III}C_2^{VI}$ .

